XALQ DEPUTATLARI ANDIJON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 7-may VI-45-34-1-16-K/24 Andijon tumani

Andijon tuman 4-sektor raxbari D.Axmadalievning 2024 yil 1-chorak xisoboti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmoni ijrosini hamda davlat rahbari tomonidan berilgan topshiriqlarni, mahalliy budjet tushumlari rejasini va iqtisodiy dasturlarning eng muhim yo‘nalishlarini belgilangan muddatlarda so‘zsiz bajarilishi, ustuvor vazifalar ijrosini, shuningdek, tumanda 2024-yilning uch oyi mobaynida mahalliy budjet daromadlarining bajarilishi holati va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash bo‘yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar kesimida budjetga hisoblangan va amalda to‘langanligi, ular bo‘yicha soliq qarzdorligi yuzasidan tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i D.Axmadalievning hisoboti tinglandi. Xususan, Andijon tumani soliq inspeksiyasi tomonidan tadbirkorlarning muammolarini o‘rganish, faoliyatlari bilan yaqindan tanishish maqsadida muntazam tarzda bevosita muloqotlar tashkil etilib, soliq qonunchiligiga oid yangilik va o‘zgarishlar to‘g‘risida batafsil tushuntirishlar berib borilmoqda. Xozirda tumanimiz hududida yashirin iqtisodiyotni oldini olish maqsadida savdo, xizmat ko‘rsatish va umumiy ovqatlanish shohobchalariga onlayn nazorat kassa apparatlari o‘rnatilib, doimiy soliq nazorati yo‘lga qo‘yilgan. Yuqorida bildirilgan fikrmulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Andijon tumanida 2024-yilning 1-choragida mahalliy budjet daromadlari, qo‘shimcha rezervlarni aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, shuningdek, soliqlar va majburiy to‘lovlar kesimida budjetga hisoblangan va amalda to‘langanligi, ular bo‘yicha soliq qarzdorligi to‘g‘risida tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i D.Axmadalievning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I Muqumjonov., tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i D.Axmadaliev va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Mamajonovlarga:

- tumandagi korxona va tashkilotlar rahbarlari budjet va maqsadli jamg‘armalar oldida soliq majburiyatini bajarishga, soliqlarni to‘liq miqdorda va o‘z vaqtida to‘lab borishga mas’ul ekanliklari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- 2024-yilning 2-choragi bo‘yicha budjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlarining bajarish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o‘z muddatlarida ijrosini ta’minlash;

- investisiya va eksport prognoz ko‘rsatkichlarini bajarilishida eksportyor korxonalarga amaliy yordam ko‘rsatib, ularga ko‘maklashish choralarini ko‘rsinlar.

3. Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i D.Axmadalievga:

- mahalliy budjetning daromadlarini oshirish uchun tizimli asosda qo‘shimcha rezervlarni aniqlab borish;

- yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladigan sabablar va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

- noqonuniy tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan jismoniy va yuridik shaxslarni soliqqa tortish, kameral nazoratni kengaytirish, ularning soliq qarzdorliklarini sudgacha undirish choralarini ko‘rish;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq Davlat budjetiga to‘liq miqdorda tushishini ta’minlash;

- Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limidan ishsiz fuqaro sifatida ro‘yhatdan o‘tgan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan fuqarolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yhatidan o‘tishi yuzasidan amaliy ko‘mak, maslahatlar berib borish va shu orqali qo‘shimcha soliq manbaalarini yaratish;

- tumandagi hokim yordamchilari, mahalla fuqarolari yig‘inlarining yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollari bilan hamkorlikni tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilik vakillariga yetkazish bo‘yicha davra suhbatlari, seminar treninglar o‘tkazib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Kengashi deputatlariga o‘zlari saylangan hududlarda yashirin iqtisodiyotga barham berish maqsadida aholi o‘rtasida doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borsinlar.

5. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i D.Axmadalievga, Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi

TURG‘UNOV
KOZIMJON
MADAMINOVICH